



Berilgan harflardan foydalanib, tabiat hodisalariga xos soʻzlarni hosil qiling.

Ch A Q M O L D I R Sh O' Q



Chaqmoq

Otash Xolmirzayev

Chaqmoq chaqib olamni,
Qilich solar boshiga.
Yalt-yalt etar huv falak,
Chopar qirlar qoshiga.

Boshin egar dov-daraxt,
Nurdan durra boshida.
Anhorlar-chi, suv haydab,
Chopar dengiz qoshiga.

Taraqlaydi arava,
Ot tuyogʻi yoʻl ochar.
Jala quyur paqirlab,
Goʻyo yerga dur sochar.

Yaraqalaydi qilichi,
Bulut bagʻrin tiladi.
Bir zum oʻtmay bor olam,
Yetti rangda kuladi.



falak – samo, osmon



1. She'ni o'qiyotganingizda ko'z oldingizga nimalar keldi?
2. Shoir chaqmoqni nimaga o'xshatadi?
3. Quyidagi satrlarni qanday tushundingiz?
*Yaraqlaydi qilichi,
Bulut bag'rin tiladi.
Bir zum o'tmay bor olam,
Yetti rangda kuladi.*
4. Ayting-chi, shoir chaqmoqni "nurdan durra" deb ta'riflashiga sabab nimada?
5. Siz qanday tabiat hodisalarini "nurdan durra" beradi, deb ta'riflay olasiz?



She'ni ifodali o'qing.
Quyidagi so'zlarning ma'nodoshi ishtirok etgan misralarni topib o'qing.

chelak, samo, yashin, on


She'rdagi o'xshatishlarni ayting.



Topishmoqlarning javobini toping.

1. Gilam ustida oq bodroq.
2. Qo'lim bilan ushlay olmayman,
Cho'ntagimga sola olmayman.
3. Uzun-uzun qiz ketdi,
Uzun bo'yli qiz ketdi.
Toqqa borib taq etdi,
Sirg'alari yarq etdi.

She'rdan foydalanib, krossvordni yeching.



Eniga:

4. Yaltillagan narsa.
5. Boshidagi durra.
6. Dengiz qoshiga chopdi.

Bo'yiga:

1. Boshiga qilich solgan nima?
2. Bag'rini tildi.
3. Paqirlab quydi.



She'ni yod oling. Tabiat hodisalari haqida qiziqarli ma'lumotlar to'plang.